

NAPOLEON KODEKSI VA UNING HUQUQ TIZIMIDAGI O`RNI

Fayziyev Xurshid

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Napoleon Kodeksi va uning jahon huquq tizimidagi progressiv ahamiyati to`g`risida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Napoleon Kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Fransiya, kodifikasiyalash, revolyusiya.

Fransuzlarning Fuqarolik kodeksi revolyusiya kalendari bo`yicha XII yil ventoz oyining 30 sanasida (1804 yil 24 mart) qabul qilingan bo`lib, keyinchalik 1807 yilda u Napoleon Kodeksi nomini oldi. Garchi ushbu kodeks Napoleon nomi bilan bog`liq bo`lsada, uning tarixiy ildizlari XVI asrga borib taqaladi. 1789 yildagi Buyuk Fransuz burjua revolyutsiyasidan ilgari Fransiyada yagona huquqiy tizim shakllanmagan edi. Fransiyaning janubida Rim huquqi ustuvorlik qilsa, Parij bilan birgalikdagi shimoli provintsiyalarda Frank va German feodal huquqi institutlariga asoslangan odat huquqi rivojlangandi. Nikoh va oilaviy turmush tarzi Rim Katolik Cherkovi nazorati ostida bo`lib, cherkov huquqi bilan boshqarilardi. Har bir provinsiya o`z odat huquqi tizimiga ega bo`lib, garchi XVI-XVII asrlarda mahalliy odat huquqi normalarini kodifikatsiyalashtirish amalga oshirilgan urinishlar mamlakat miqyosida kichikroq muvafaqqiyatga erishish bilan cheklanib qoldi xolos. Boshqa bir tomondan mamlakatda yagona huquq tizimini yaratish, dvoryanlarning odat huquqi bilan mustahkamlangan imtiyozlariga tahdid solardi. Fransiyaning kechib chiqayotgan musofir, Volter tili bilan aytganda: “ko`pincha otlaridan ko`ra qonunlarini almashtirishiga to`g`ri keladi”.

O`z davrida shon-shuhratga burkangan Napoleon Kodeksi yevropa mamlakatlari orasida birinchi bo`lib fuqarolik huquqi tizimini o`rnatgan deb fikr yuritish xato bo`lar edi. Undan ilgari Bavariyada 1756 yilda Codex Maximilianeus bavaricus civilis, Prussiyada 1794 yilda Allgemeines Landrecht va keyinchalik Avstriya tarkibida bo`lgan Galisiyada 1797 yili G`arbiy Galisiya Kodekslari qabul qilingan edi. Biroq Napoleon Kodeksi napoleon urushlari davrida va undan keyin ham pan-yevropa doirasida Fransiya bo`ysundirilgan ko`plab yevropa davlatlarida birinchi huquqiy kodeks sifatida qabul qilindi. Napoleon Kodeksining ta`siri Yaqin Sharq mamlakatlari huquq tizimiga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatdi.

1791 yilda Fransiyaning feodal tizimi asoslarini tag-tomiri bilan qo`porib tashlagan Milliy Assambleya mamlakatda yagona kodeks yaratish g`oyasini ilgari suradi. Jan-Jak-Reje de Kambasere boshchiligidagi komissiya 1793, 1794 va nihoyat 1796 yillarda Fuqarolik Kodeksining loyihasini parlamentga taqdim qiladi. Lekin

ushbu kodeksning loyihalari turli sabablarga ko`ra qabul qilinmaydi. 1799 yildagi Jan-Ignas Jakemino tomonidan tayyorlangan to`rtinchi loyihaning taqdiri ham yuqoridagi loyihalardek bo`ldi.

Konsulat davrida birinchi konsul Bonapart kodeks yaratishga qaror qildi. Fransiyaning turli burchaklaridan bo`lgan to`rtta yuristga bu mashaqqatli ish topshirildi: Portalis va Malevill — rim huquqi ustuvor bo`lgan janubiy provinsiyalardan, Bigo de Preameno va Tronshe esa odat huquqi urf bo`lgan shimoliy provinsiyalardan edilar. Ushbu kodeks 1801 va 1803 yillar oralig`ida qabul qilingan 36 ta qonundan iborat bo`lib, 2281 moddani o`z ichiga qamrab olgan edi.

Bu kodeksda xususiy mulk daxlsizligi, qonun oldida barchaning tengligi va vijdon erkinligi mustahkamlab qo`yildi. Bu o`z navbatida o`sha davr uchun progressiv ahamiyatga ega bo`ldi. Muqaddas Yelena oroliga surgun qilingan

Napoleon ushbu kodeks haqida shunday fikr bildirgandi: “Mening haqiqiy shuhratim qirqta jangda g`alaba qozonganim emas. Vaterlo shuncha g`alabalar haqidagi xotirani o`chirib tashlaydi. Hech narsa o`chira olmaydigan, abadiy yashaydigan, bu mening Fuqarolik kodeksimdir”. Shunday qilib, Rossiya va Skandinaviya mamlakatlaridan tashqari, kontinental yevropa davlatlarining huquq tizimiga Napoleon Kodeksi sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Qo`shma Shtatlarga kelsak, ushbu davlat garchi anglo-sakson huquqi oilasiga kirsada, qachonlardir Fransiyaning dengiz orti koloniyalaridan biri bo`lgan Luiziana shtati Napoleon Kodeksi ta`siri ostida yaratilgan o`z kodeksiga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Pierre Antoine Fenet, *Recueil complet des travaux préparatoires du Code civil*, Paris, 1827, t. I, p. CXXIX.
2. Charles François Tristan de Montholon, *Récits de la captivité de l'Empereur Napoléon à Sainte-Hélène*, Paris, 1847, t. I, p. 401.
3. Pio Caroni, « La storia della codificazione et quella del codice », *Index*, 29, 2001, p. 55-81.
4. *Le Mémorial de Sainte-Hélène* par le comte Las Cases, Paris, La Pléiade, 1956, t. I, p. 593.
5. Franz von Lassaulx, *Introduction à l'étude du Code Napoléon*, Paris, 1812, p. 280-281.